

AKADEMIK LITSEYLARDA MUAMMOLI TA'LIMNI TASHKIL ETISH

Qo'shaqova Feruza Orziqulovna

Jizzax politexnika instituti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada akademik litseylarda muammoli ta'limga tashkil etish va amaliyotda qo'llashning ahamiyati Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'limga tashkil etish, ijodiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, evristik ta'limga tashkil etish.

Muammoli ta'limga tashkil etishning amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'r ganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. O'quvchilarining darsdagi mas'ulligini oshirish va ularda o'r ganilayotgan asarga qiziqishni kuchaytirishda asosiy evristik usulda foydalilanadi. Muammoli darsni, asarni to'liq o'r ganib bo'lingandan keyin o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki o'quvchi asar bilan yaxshi va to'liq tanishmagan bo'lsa, berilgan muammoni to'g'ri tushuna olmaydiva savollarga javob berishga ojizlik qiladilar. O'z fikriga ishonmagan o'quvchi bahsga ham aralashib, faollik ko'rsata olmaydi. Babs darslar o'quvchilarini fikrlashga, so'zlashga, tadqiqot qilishga, maqbulni nomaqbeldan ajrata bilishga, o'z fikrini dalillar bilan isbotlashga, muhokama va munozara yuritishga o'rgatadi.

O‘quvchi-talabalar haqiqatni yuzaga chiqarishga intiladi, chunki haqiqat bahsda tug‘iladi.

Masalan, “Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini muammoli o‘rganish”. Asarni tahlil qilish, qahramonlar ichki va tashqi olamining o‘ziga xos tomonlarini ochishda sinf uch guruhga bo‘linib, taxminan guruhlarga shunday nom qo‘yish mumkin: “Odil sud”, “Tergovchi”, “Oqlovchi”, “Guvoхlar”.

Tergovchi guruh fojea ro‘y berishga sabab bo‘lganlarga aybnama e’lon qiladilar. Oqlovchi guruh qahramonlarning xatti-harakatidan kelib chiqib, fojeani oqlashga harakat qiladilar. Guvoх guruh oqlovchiga yordamlashadi. Muammoli darsni o‘qituvchi, odil sud boshqarib boradi. Odil sud: Toshkandning mashhur a’yonlaridan bo‘lgan Yusufbek hoji xonadonida fojea yuz berdi. Bugun ana shu fojea yuziga bolta urmoq maqsadida yig‘ildik. Qoralovchi va oqlovchi tomonlar tayyormi?

Qoralovchi guruхlar “O‘tkan kunlar” ishi bo‘yicha Yusufbek hoji o‘g‘li Otabekni aybdor deb, unga quyidagi ayblovlarni qo‘yadilar: Otabek ota-onarizoligisiz marg‘ilonlik MIrzakarim qutidor qizi – Kumushbibiga uylandi, shuning orqasida o‘z farzandlik burchini unutdi, Otabek ko‘ra bila turib, Zaynabga uylandi va bir bechora qizning baxtiga zomin bo‘ldi, shariat qonuniga ko‘ra ikki ayoliga bir xil munosabatda bo‘lmog‘I, ikkisini ham o‘z himoyasiga olmog‘I kerak edi. Biroq Otabek bechora Zaynab qarshisida “jonsiz haykal” bo‘lib yashadi. Bir bechora qizning shodligi, dardu-hasratiga sherik bo‘la olmadi, Otabek bechora Zaynabga eng so‘nggi chorani ko‘rishga majbur qildi, o‘zi bilmagan holda Kumushning qo‘liga zahar tutqazdi.

Oqlovchi ro‘y bergen fojeada Otabekning aybi yo‘qligini isbotlash uchun guvoх guruhlarni chaqiradi. Oqlovchi guruh tomonidan tahminan guvoхlarga shunday savollar beriladi: Siz Yusufbek hoji o‘g‘li Otabek haqida majlis ahliga nima ayta olasiz? Otabekka qanday baho berasiz? Otabek andishali, vijdonli emasmi? Otabek millat taqdiri bilan qayg‘uruvchi kishilardan emasmi? Siz bizga Otabekning a’yonlariga bo‘lgan munosabati haqida biror narsa ayta olasizmi?

Bu savollarga guvoh guruhlarning javobi: “O’tkan kunlar” romanı qahramoni Otabek 24 yoshlarda, og‘ir tabiatli, ulug‘ gavdali, ko‘rkam va oq yuzli, mutanosib qora qoshli va egnida chakmon, murti sabza urgan, ilmli va aqli bir yigit. Men kitobni o‘qiganimda,Ziyo shohichi Otabekni maqtab, “Otasinging bolasi”, Akrom hoji “agar xon ko‘tarish manim qo‘limda bo‘lsa edi, xon qilib, Otabekni ko‘tarar edim”¹⁰, deb aytganiga, Mirzakarim qutidor “Otabek xon qiziga loyiq bir yigit ekan” degan ta’riflarga asoslanib unga yaxshi ta’rif beryapman. Otabek andishali, vijdonli inson. U borovning qalbiga ozor berishdan qo‘rqadi. Balki mana shu andisha Kumushning o‘limiga sabab bo‘lgandir. Otabek yodingizda bo‘lsa mehmonlarga Hasanali qul ekanligi sir bo‘lmasada, ammo bu sir bilan uning qalbi ozor chekishini o‘yaydi.U odamlarga mansab va boyliklarga qarab emas, balki insoniy fazilatlarga qarab baholovchi bir yigit edi. Otabekni millat taqdiriga befarq deb bo‘lmaydi.Azizbekning Qo‘qonga qarshi bosh ko‘targani xalq tomonidan odatiy qarshi olindi. Ammo Otabek bu xabarga oddiy qaray olmadi. “Yeb turgani og‘zida, qolgani bo‘g‘zida qoldi”¹¹. Otabek millatni, xalqni, musulmonni jar yoqasida turganidan vahimaga tushdi. Yoki bir misol; Qipchoqlarning qirg‘in etilishi Otabekni dahshatga soldi.U bu fojeaga oddiy tomoshabin bo‘lib qaramadi. Barcha zahrini otasiga sochdi. Otabek “jahl chiqsa,aql ketadi” qabilida ish tutdi, ya’ni Yusufbek hoji ertalab choyni Otabek bilan birga ichish uchun mehmonxonaga chiqqanida Otabek tersaygancha kelib choyga o‘lturdi,lekin otasiga salom bermadi. Chunki ul o‘z otasini qipchoq qirg‘inining bosh omillaridan deb qaror qo‘yg‘an edi. Otabek vaziyatni anglash, oqni qoradan ajrata biluvchi yigitlardan edi. Yusufbek hoji o‘g‘lining gaplaridan ko‘ziga yosh olib, “Nega har bir narsaga yetgan aqling shunga yetganda oqsaydur?”¹² , deganida Otabekdagi ana shu fazilatni nazarda tutgan edi.Otabekning a’yonlarga bo‘lgan munosabati roman boshidayoq ma’lum edi. “Oladurg‘on xotining‘iz sizga muvofiq

¹⁰A.Qodiriy. “O’tkan kunlar”. Nashriyot: “SHARQ”.2018.

¹¹A.Qodiriy. “O’tkan kunlar”. Nashriyot: “SHARQ”. 2018.

¹²A.Qodiriy. “O’tkan kunlar”. Nashriyot: “SHARQ”. 2018.

bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiq bo‘lsin”¹³, -deya fikr bildiradi. Shu tufayli uylanmay turib, Zaynabga achinadi, “bir bechorag‘a ko‘ra bila turib, jabr ham xiyonat”, - degan edi. Otabek Kumushga muhabbat orqasidan uylangan bo‘lsa, Zaynabga ota-onasi orzusi tufayli uylandi. Shu bois, bir qalbga ikki muhabbatni sig‘dira olmadi.

Odil sud: “O‘tkan kunlar” ishi yuzasidan aybnomani ochiq qoldirishga qaror qildik. Shu bois, bu masalada Siz ham mulohaza yuritasiz degan umiddamiz. Buning uchun “O‘tkan kumlar” ni qayta-qayta o‘qish zarur. Zero, moziyga qaytib ish ko‘rmoq, xayrli deydilar.

Dars yakunlandi va o‘qituvchi o‘quvchi-talabalar ishtirokini baholaydi. Uyga vazifa beriladi: “Asar qahramoniga maktub” mavzusida insho yozish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar”. “Sharq” nashriyoti. Toshkent - 2018.
2. Adabiyot. 10-sinf darsligi. “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2017.

¹³A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar”. Nashriyot: “SHARQ”.2018.